

## **QUYOSH, BARIBIR, CHARAQLAB NUR SOCHAYERADI... .**

Tojiyev Xonimqul f.f.n., Guliston davlat universiteti dotsenti

Xamdamova Nilufar Farhod qizi Guliston davlat universiteti kafedrası stajor-o'qituvchisi

### **Annotasiya:**

Ushbu maqola Afg'on/ Amerika yozuvchisi Mir Tamim Ansariyning ilk, o'ziga xos xotiralari tarixiy, avtobiografik , asari " West of Kabul, East of New York " ya'ni " Qobulning g'arbi , New Yorkning sharqi " deb nomlangan. Albatta, mana shu ikki tarixda ma'lumu mashhur Qobulning g'arb tomonidagi New York va New Yorkning sharqidagi bir-biriga uncha o'xshamaydigan ikki dunyo oralig'idagi farq. Asarning butun olam bilib qo'yishi zarur bo'lgan o'ziga xos tarixiy- hikoyasi 2001- yilning 11-sentabiridagi dunyo xalqlarini titratib yuborgan voqea sabab Afg'on xalqi kimligini yaxshiroq tanishtirish. Bombani afg'on xalqi emas, balki quyida Bin Laden va uning xalqini o'ylamaydigan tarafdorlari portlatganlar, chunki samalyotdagilarga aynan shular yo'l ko'rsatishgan. Elektron xatning o'zbek tiliga tarjimasi haqida fikr bildirib o'tmoqchimiz ushbu maqolamizda. Xatda tug'ulib o'sgan yurt odamlarining yomon otliq bo'lib qolmasliklari uchun harakat qilish-aslida ham Afg'oniston xalqining 11-sentabrdagi mashxur "minorli uylarni" vayron qilish, Amerika xalqini "qo'rqitib" qo'yishga kimlar qiziqayotganini ochib tashlash deb o'ylaymiz.

The Sun Shines brightly, all the same... .

**Kalit so'zlari:** Afg'oniston va uning ezilgan xalqi, Bin Laden, Tolibonlar, G'arb va Sharq orasidagi farq, Tosh asr, to'yib ovqat yeyish va hokazo.

## **Аннотация**

Эта статья посвящена историческим автобиографическим мемуарам афганско-американского писателя Мира Тамима Ансари под названием «Запад Кабула, восток Нью-Йорка». Конечно, в этом разница между двумя мирами Нью-Йорка к западу от знаменитого Кабула и непохожими мирами к востоку от Нью-Йорка.

Уникальная историческая история произведения, которую должен знать весь мир, является поводом для события, потрясшего народы мира 11 сентября 2001 года, чтобы лучше представить самобытность афганского народа. Бомба была взорвана не афганским народом, а Бен Ладеном и его сторонниками, которые не думали о людях внизу, потому что именно они направляли людей в самолете. В этой статье мы хотели бы прокомментировать перевод электронного письма на узбекский язык. В письме предпринимаются усилия для того, чтобы жители страны, где они родились и выросли, не стали плохими наездниками — фактически, чтобы выявить, кто заинтересован в разрушении знаменитых «башенных домов» афганского народа 11 сентября, и "напугать" американский народ. думаем мы.

Солнце светит ярко, все равно... .

**Ключевые слова:** Афганистан и его угнетенный народ, Бен Ладен, талибы, разница между Западом и Востоком, каменный век, достаточное питание и др.

## **Annotation**

This article focuses on the historical autobiographical memoir of the Afghan-American writer Mir Tamim Ansari titled Kabul West, New York East. Of course, this is the difference between the two worlds of New York to the west of the famous Kabul and dissimilar worlds to the east of New York.

The unique historical story of the work, which the whole world should know, is the occasion for the event that shook the peoples of the world on September 11, 2001, in order to better represent the identity of the Afghan people. The bomb was not detonated by the Afghan people, but by bin Laden and his supporters, who did not think about the people below, because they were the ones who directed the people on the plane. In this article, we would like to comment on the translation of an email into Uzbek. The letter makes an effort to ensure that the people of the country where they were born and raised do not become bad riders - in fact, to reveal who is interested in destroying the famous "tower houses" of the Afghan people on 9/11. , and "scare" the American people. We think.

The sun is shining bright, anyway... .

**Key words:** Afghanistan and its oppressed people, Bin Laden, Taliban, difference between East and West, Stone Age, sufficient food, etc.

"Qobulning g'arbi Nyu- Yorkning sharqi" xotira kitobi Afg'on eli tarixi, Afg'oniston xalqi tarixidan hikoya qiladi. Kitobda muallif Mir Tamim Ansariy " yaqin moziygina " emas, bu bugunga qo'shilib ketgan tarixni qalamga olgan, va u afsus - nadomat bilan ko'pgina odamlar Amerikada ( boshqa joylarda ham ahvol uncha maqtaydigan emasdir, balki...), " ba'zilar esa shunday mamlakat borligini eshitib hayron qoladi, muallifning o'ziga so'z bersak: " Afg'oniston qayerdaligini juda kam odam biladi, Amerikada ba'zilar esa shunday mamlakat borligini eshitib hayron qoladi" deb yozadi roman muqaddimasida. Biz esa aftidan ularga " Jug'rofiya" degan fan o'qitilmagan, shekilli, deb o'ylab qolamiz. Sabab bizda Amudaryoning janub tomonida qadimiy shahar Termizning nargi betida joylashganini uzoqdan bo'lsada borib ko'rganimiz... Kitobni o'qir ekanmiz beixtiyor, suyakli shoirlarimiz Hamid Olimjonning, Abdulla Oripovning va boshqa shoirlarning " O'zbekiston" , Erkin Vohidovning yurtimizni madh etgan she'rlari yodga tushaveradi...

"Afg'oniston shundaymi? Men hech qachon sizning Afrikadan ekanligingizni hatto tahmin ham qila olmagan bo'lar edim" degan ekan Ansari yaqinda , 2001- yilning yozida ( shunga ham chorak asr bo'lay deb qolibdi) bir odam..? Xat yozilgan kunlarda Ansariyni tanimaganlar u qayerga borsa Qandahar, Qunduz ( to'g'rirog'I Qunduzi Sharif, Mozori Sharif haqida gapirishayotgan bo'lar ekan. Ansariyning qisqa hayotida 12- sentabrdan boshlab , Afg'onistonning nomi birdaniga yomonga chiqqan " yomon otliq" bo'lib qolgan , shu bo'yi muallif davom etadi:

"Yadro quroli bilan u joyni yo'q qilib yuborsak, u odamlarga bu bir saboq bo'ladi. Uning atrofini panjara bilan o'rab, g'ov qilib tashlang! Ovqat, dori - darmondan qisib tashlang! U odamlarni ochlikka mahkum qiling!" singari ishoralar kitobning 4-betida keltirilgan. Bu undov gaplarning ma'nosini o'zingiz chaqib olarsiz. Skandinaviya yarim oroli mifologiyasida qadimgi afsonaviy, Ansariy oilasini mahluq ruh pari kabi ayni oilasining buvisining qalbida ko'rgandek.

Vaholanki, buvisining dunyodan o'tganiga ko'p yillar bo'lgan, biroq yozuvchining miyasida buvisi yana bir martrta vafot etgandek tuyuladi. Tamim Ansariy Afg'oniston va uning xalqi ustiga bo'mbalar yomg'irday yog'ganligini ko'z oldiga keltirdi, otasini ko'rdi, o'shanda sobiq ittifoq Afg'onistonning bo'yniga yog'och bo'yincha ilib qo'ygan.

Asar Tamim Ansariyning bolalari- qizlari, Jessamin va Elina uchun yozilgan. U prolog - muqaddima , uchta qism , epilog- oxiri Xotima, email muallif 20 ga yaqin, ishonsa, ko'nglini ochsa bo'ladigan, tanishlsari orqali olamga bildirgan. So'ngso'z va kitobning dunyoga kelishida ko'magi tekkanlarga minnatdorchilik bilan nuqta qo'ydi. Muqovalarda ayrim jurnal va kitobni o'qigan muxlislarning muxtasar fikrlari berilgan. Tamim Ansariyning hayoti va ijodi bilan qisqacha tanishamiz. Yozuvchi

va u haqida xotirada taqdim qilinganidan ko'ra mufassalroq , to'laroq ma'lumotga ega bo'lishini istar edik, albatta...

Muallif 2001- yilning 12- sentabrida olamga shunday bor ovoz bilan murojaat qilgan va va siz kitobxonlar ham buni bilib qo'ying:

" Qadrli do'stlar! Men Afg'onistonga bomba yog'dirib, uni Tosh asriga qaytaring !degan gap haqidagi gapni , o'ziga xos , o'ylamay aytilgan suhbatni ko'p eshitganman". Muallifning qanchalar kuyunib bildirgan fikr mulohazasiga nima demoqchiligini barchangiz bir o'ylab ko'ring . Radiodagi bir eshittirishda, bunday yo'l tutish begunoh odamlarni qirish , u odamlar bunday yaxshiyliklarga aloqador emaslar aslida, " Biz urushdamiz , biz ikkinchi darajadagi ( aslida vayrongarchilikning esa darajasi"degan narsa o'zi yomon gapligini yaxshi tushunasiz , tabiiyki, vayrongarchilikni qabul qilishga majburmiz, boshqa nima ham qila olar edik. Bunday ojizlik hech kimning boshiga tushmasin!

Bir necha sanoqli daqiqalardan keyin , televizorda bir olim Pundit hind Brahman , o'qimishli odam bizning muhokamamizni eshitdi; Biz qoringa nima qilish kerak bo'lgan ishni qilishimiz kerak " degan ekan.

Muallif kun tartibiga olib chiqishi zarur bo'lgan masalalarni yakuniy natijalarini o'ylagan , og'ir masala , o'ta jiddiy ya'ni kelishmovchiliklar ularni keltirib chiqargan sabablarini o'ylagani boisi muallif Afg'onistondan " Men Amerikada 35 yildan beri ( burun kitob bosilib chiqarish ishlarini qilganiga yarim asirga yaqinlashib qoladi). Ansariy Afg'onistonda bo'layotgan voqealardan xabardor bo'lib turadi. Shu sabab men turgan joydan ko'rib nimalarni, ahvol qanday ekanligini eshitishni xohlaganlargagina hikoya qilib bermoqchiman". Yozuvchi tolibonlarni va Osoma Bin Ladenni nima uchun yomon ko'rishini ochiq aygan, yashirib o'tirmagan.

Tamim Ansariy yozishicha, aynan shular Nyu- Yorkdagi yaxshilik uchun javobgar deb hisoblandi, bunga uning " Ishonchim komil, bu qo'rqinchli monsterlarga nisbatan qandaydir choralar qo'llash shart". Bu butun dunyo xalqari oldidan, xususan, Amerikaliklar oldida ular 3-jahon urushining boshlanib ketishiga durustgina bahona topib berishini ajobtovur yaxshi tushungan.

Tamim Ansariyning juda topib aytgan so'zini sizlar ham bilib qo'yingizlar. Uning aytishicha: Tolibon va Bin Laden, Afg'oniston emas. Ular xatto Afg'oniston hokimiyati ham emas. Tolibonlar 1997- yilda Afg'onistonni qo'lga olgan nodon , aqlsizlar sig'ingan/topingan Bin Laden siyosiy jinoyatchi ekanligini ham bilib qo'yishlarini xohlagan. Bularga nisbatan qo'rqinchli monsterlar degan ta'rifni ham Tamim Ansariy aytgan: " Shubhasiz, miyamda bu odamlar Nyu- Yorkdagi yaxshilik uchun javobgardirlar". Bu hukum verdikt sizni ham ta'sirlantirib yuborishi aniqligiga ishonamiz; daxshatli hukm: " Tolibon" deganda nemis fashistlari " Natsislar"ni tushunishimizni xohlaydi. Bin Laden deganda Gitlerni o'ylaydi u. Bu sinonimik tushunchalar adibning yurak yuragidan bildirilayotgan tavqi- la'nati dek jaranglaydi, albatta. **" Afg'oniston xalqi " deganda " Konsentratsion lageridagi Yahudiylarni o'ylang". " Zolimlikka hech qanday aloqasi yo'q Afg'on xalqining ... (ta'kidlar bizniki T.X)**

Mir Tamim Ansariy shu ruhda davom etadi: " Zolimlikka hech qanday aloqasi yo'q. Afg'on xalqining Afg'onlar buzg'unchi, jinoyatchilarning birinchi qurbonlari". Ular kimdir ichkariga kirib, Tolibonlarni olib chiqib ketishsa, afg'onlar kalamush uyasini tozalasalar shod-u hurram , xursand bo'ladilar, " Xalqaro kallakesar qotillarni o'z mamlakatlarida odamlardan yashirib olsalar", bu ham og'ir qoralash.

Yozuvchining navbatdagi satr boshidagi gapida ham jon bor deb o'ylaymiz: " Ba'zilarning aytishicha ( buni aytishgina osson xolos, uni amalga oshirish kitob yozilayotgan zamonda uni amalga oshiradigan xalqning o'zi bo'lmagan ekan deb tushunishimiz kerak ekan; Bunday ilojsizlikning asl sababini yozuvchining o'zi bizga quyidagicha anglatadi:

" Ba'zilarning aytishicha nega afg'onlar ko'tarilib Tolibonlarni ag'darib yo'q qilib tashlamaydilar? Javobi bu: ular och qolganlar, darmoni qurigan , toptalgan, xech narsaga yaramaydigan holga tushganlar, har qanday huquqdan mahrum qilinganlar, azob uqubatda qolib ezilganlar. Bir necha yillar avval Birlashgan Millatlar Afg'onistonda 500 mingga yaqin ishga yaroqsiz yetim- yesirlar bor deb baholaganlar - iqtisodi yo'q mamlakatning oziq ovqati yo'q deganlar. Millionlab minalar sochib tashlangan, fermalar, sobiq sovetlar tomonidan vayron qilingan. Nima uchun Afg'onlar Tolibonlarni ag'darib tashlamaganliklarining sabablaridan ayrimlari bular.

Navbatdagi masala Afg'onistonga bomba yog'dirib, uni Tosh asri davriga qaytarishi masalasi: Tashvish , musibat shundaki bu ish aslida amalga oshirilgan. Bu haqda sobiq sovetlar allaqachon g'amxo'rlik ko'rsatib qo'yishgan.

Afg'onlarni qiynab azob berishmi? Ularni necha yillardan beri bu dardga muhtalo etishgan, ularning uylarini yer bilan yakson qilishmi? Ularning maktablarini xarobaga, vayronalar uyimiga aylantirishmi? Bu ishlar boplab bajarilgan, qilingan. Ularning kasalxonalarini tak-tubi bilan yakson qilishmi? Bu amalga oshirilgan. Ularning tibbiyotdan sog'liklariga g'amxorlik qila olmasliklari uchun vaqt, muddat o'tib ketdi, endi kech bo'ldi. Bu ishni kimdir allaqachon uddalab qo'ygan. Yangi tashlanadigan muammolar yaralarni qo'zg'atadi, ularga jon kiritadi holos.

Tarjimamizni cheksiz- chegarasiz achinish- kuyinish bilan davom ettiramiz: " Balki bombalar o'sha qo'llaridan biror ish kelmaydigan, yaroqsiz ahvolga tushib qolgan,

mayib- majruh, g'irt qarovsiz yetimlarning ustiga tushar, chunki ular tez harakat qila olmaydilar, ularning loqal nogironlarga berishga mo'ljallangan aravachalari ham yo'q. Biroq Qobul uzra uchib, bomba tashlash aslida jinoyatchilarga qarshi bo'lib, ular shu xil daxshatli ishlarni amalga oshirganlarga qarshilik bo'ladi. Aslida, haqiqatda, Tolibonlar qilgan umumiy ish, doimo nomusga tegishi, zo'rlab kelganlarni yana qaytadan zo'rlash, nomusni bulg'ashdan boshqa narsa emas.

Ho'sh, yana nima bor? Nima bo'lishi mumkin bu yerda ? Yana nimani aytish mumkin ? Menga qo'rqib va titrab gapirishga ruhsat bering.

Bin Ladenni qo'lga olishning birdan biri yo'li, uni yer bilan yakson qiladigan vosita lashkar qo'shin bilan ularning ustiga borish . Odamlarning aytishlaricha " Qoringa nima kerak bo'lsa, o'sha narsanigina qilish kerak, ular iloji boricha ko'proq odamlarni o'ldirish haqida "qayg'uradiganlar" ,qorinni shu bilan to'ydirib, har qanday ishni begunoh odamlarni nargi dunyoga jo'natishi nohaq ish ekanligini bilib qo'yishlari zarur.

" Shu yerga kelganda yozuvchining kayfiyati sal ko'tariladi: boshimizni qumning tagidan chiqaraylik. Amerikaliklarning stol ustida haqiqatda hozir qo'yib, o'tirgizib qo'ysa bo'ladigan nimasi bor ? Ba'zi Amerikaliklar Afg'onistonda jang qilib o'lganlar, Bin Laden yashiringan joyni topib borish uchun astoydil harakat qildilar odamlar , bu anchayin katta ish, chunki Afg'onistonga olib kiriladigan har qanday qo'shin Pokiston orqali borishga to'g'ri keladi. Ular bizga bunday harakatlanishga ruxsat beriladimi?

Aftidan, bunday emas: Buning uchun , avvalo , Pokistonni istilo qilish shart bo'ladi. Bu ishda boshqa musulmon millatlari Pokistonliklarning yonida turisharmikan? Men gapni qayoqqa burayotganimni ko'rib, sezib turibsizmi? Biz Islom va G'arb



o'rtasidagi jahon urushi yuz berishini go'yo noz karashma, ishva bilan bildirib qo'ymoqchi emasmiz, - demoqchi muallif.

" Yozuvchi bu yerda " flirt" so'zining bekorga qo'llamayotaniga e'tibor berarsiz, albatta. Bu "xat boshi" sharhlash, izohlashga juda ehtiyot bo'lish kerak, chunki urush bu faqat falokat, vayronalik, o'lim olib keladigan voqelik, axir...

" Bu Bin Ladenning dasturi" va uning asl mazmun- mohiyatida yaxshilik, ezgulik qidirib topa olmaysiz. Tamim Ansariy Bin Laden dasturning mohiyatini quydagicha ochib, fosh etib tashlaydi:

Uning nutqlarini va bayonotlarini o'qing. U yerda hammasi yozilgan. U haqiqatda Islom G'arbni yengishga ishonadi. Bu kulgiligi. U olamni ikki bo'lakka ajratib bo'lib, tashlamoqchi, uning milliardlab lashkari, qo'shini bor. Biroq u qo'shindagilarning – ongi, farosati-chi?

Agar G'arb Sharqni yo'q qilib , qirib tashlash masalasiga kirishsa, bu yerdagi hamma narsani yoqib, yo'q qilib , kulga aylantirsa, bu milliardlab odamlarning yo'qotadigan hech narsalari bo'lmaydi- ku, buning nimasi yaxshi. Bin Landenning nuqtayi-nazarida. U tabiiyki, nohaq: Oxir - oqibat bu nimani bildirishidan qat'iy nazar , G'arb g'olib chiqadi, biroq urush, uning oqibati yillarga cho'ziladi, millionlab odamlar xalok bo'ladilar, ularnikigina emas, biznikilar ham bunday qorin kimda bor? Bin Ladenda bor? Yana kimda, boshqa kimda...

**Tamim Ansari.**

## **Xulosa**

Xullas Mir Tamim Ansariyning E- mail xati tarjimasini to'g'risidagi gaplarning sharhi izohlari, haqida ba'zi o'rinlarda balki haddan tashqari xayajonga tushib ketgandirmiz... "Qobulning g'arbi Nyu-Yorkning sharqi" xotiralar kitobi xususida

bildirmoqchi bo'lgan qarashlarimizni hali nihoyalamadik. Yozuvchi ijodi bilan tanishish davom etaveradi. Zero, uning tarixiy asarlarining o'zi bir olam. Aslida muallifning har bir asari tarix, shu bilan birga ularda bugungi Afg'oniston va Afg'on xalqi hayoti holisona obyektiv tasvirlangan. Elektron xatni tarjima qilishimizga sabab uning juda katta tarixiy janjalning oldini olishga qaratilganligi. Tasvirlangan olam hududi keng, asarning Sharq va G'arb olamidagi musulmonlarga qaratilganligi, ularga o'ziga xos murojaatnomasidek jaranglaydi. Biz nomani tarjima qilish bilan Tamim Ansariy dunyoqarashiga qo'shilishimizni yana bir karra eslatib o'tamiz. Quyosh esa har doim charaqlab turaveradi!...

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ansary TM West of Kabul, East of New York: An Afghan American Story. - New York: Farrar, Straus and Giroux, 2002. - P. 300 ( 292-298p).
2. Ansary TM Destiny Disrupted: A History of the World Through Islamic Eyes Paperback – April 27, 2010.
3. Nilufar, K. (2022, May). HISTORICAL INFLUENCE OF “EAST OF NEW YORK, WEST OF KABUL” BY MIR TAMIM ANSARY. In Archive of Conferences (pp. 33-35).